

## "LANGUAGE IS THE MIRROR OF THE NATION"

**Mamadaliyeva Nargiza,**

A student of Group 620, National Ideology, Spirituality and Legal Education, Termez State University,  
Faculty of Law,

Language and literature are the lifeblood of any nation in the world. Losing a national language is losing the spirit of a nation.  
(Abdulla Avloni)

Every child born needs to know a lot in order to become a real person. Since the creation of the human race on earth, it differs from animals in that it has a language. Man learns by seeing, hearing and reading the knowledge he needs. Hearing and reading take place through language. Without language, everyone's life is based on his own experience. If it were, man would have lived as the animal did to this day, and would not have achieved today's material and spiritual progress.

## TIL-MILLAT KO 'ZGUSI 'MAVZUSIDA YOZGAN MAQOLASI

**Mamadaliyeva Nargizaning**

Termiz Davlat Universitetining Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi  
yo'nalishi 620-guruh talabasi

Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatib beradigan  
oyinayi hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak  
millatning ruhini yo'qotmakdur  
(Abdulla Avloniy)

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo'lib yetishishi uchun juda ko'p narsalarni bilishi kerak. Yer yuzida inson zoti yaratilganidan buyon u hayvonlardan til-zabonga egaligi bilan farq qiladi. Inson o'ziga kerakli bilimni ko'rib, eshitib va o'qib o'rganadi. Eshitib va o'qib o'rganish til vositasida amalga oshadi. Agar til bo'lmay, har bir kishining tirikligi uning o'z tajribasiga asoslangan bo'lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiy va ma'naviy taraqqiyotga erishmagan bo'lardi. Dunyodagi har bir xalq o'z boyligi bo'lmish tilini doimo asrab-avaylab keladi. Chunki til va adabiyot o'sha xalqning milliy g'ururini ham aks ettiradi. Milliy tili va adabiyoti yo'qolgan xalq esa xorlikka mahkumdir. Tilning birinchi ma'rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan bilim ommalashib, uning ko'pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug'iladi. Undan tashqari, til tufayli bilib avloddan avlodga og'zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, balki uni davom ettiradi. Ajdodlarimiz qadimdan tilimizni boyitishga, asrashga va rivojlantirishga juda katta hissa qo'shib kelganlar. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Turdi Farog'iy singari buyuk insonlar faoliyati biz yosh avlod uchun ulkan merosdir. Jumladan, Alisher Navoiy bobomiz hayot mohiyati hisoblangan to'rt unsur: suv, havo, tuproq, olovning ham, yetti qavat osmondagi yetti sayyoraning ham so'z tufayli vujudga kelganini ta'kidlaydi. So'z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, uning qarshisida eng qimmatbaho narsalar ham qadrsizlanadi:

So'z guhariga erur oncha sharaf,

Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.

Agar til yo'qolsa, tamaddun tugaydi, u salomat bo'lmasa, millat sochilib ketadi. Shuning uchun esi o'zida xalq, erki o'zida millat til muhofazasini muhtasham maqsad deb biladi, uni taraqqiy qilish orzusini biron ham unutmaydi. O'zbek xalqi ham millat ruhining timsoli bo'lmish ona tilini doimo asrab-avaylaydi. Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallikni namoyon qilish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning

barchasi muhim. Shuning uchun til faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish to'g'ri bo'lmaydi. Muborak hadisi shariflarda „Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidadir“, deyiladi. „Odobning boshi til“ ekanligi Mahmud Koshg'ariy bobomiz maqol tarzida qayd qilgan. O'zbek xalqi madaniyatida so'zga oshuftalik, ona tilida ta'sirli nutq tuza oluvchiga ayricha zavq bilan qarash azaliy urflardan biridir. Yoqimli so'z bilan nafaqat tinglovchining qulog'ini, balki qalbini ham zabt etishga harakat qilinadi. So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy: „Tilga e'tiborsiz – elga ixtiyorsiz“, -deb bejizga aytmaganlar. O'z tiliga e'tiborli, har qanday yomon so'zlarni aytmaydigan insonlar, shubhasiz, xalq ichida ham hurmat qilinadi. Insonning tili uning qanday fazilati yoki illati borligini ham bildirib turadi. Darhaqiqat, bir tilda toza gapira olmagan yo toza gapirishni mensimagan odamni aslo madaniyatli deb bo'lmaydi. Madaniyatli bo'lish uchun odamga faqat bilim, kiyim, taqinchoq, yaxshi ro'zg'orning o'ziginakifoya emas. Shular bilan birga shirinso'zlik, tozalik, saranjomlik, og'irlik, halollik va eng muhimi, o'z ona tiliga muhabbat va uning sofligini saqlashga harakat ham zarurdir. Xalqimizda har inson nutq tuzishda e'tiborli bo'lishga da'vat etiladi, nutqning musallam o'rnini topib so'zlashga oid quyidagi maqollarni keltiradi: „O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir „Qopib emas, topib gapir“, „So'z qadrini bilmagan o'z qadrini bilmas“. Zero, tilimizga e'tiborli bo'lish ma'naviyatimiz ko'zgu hisoblanadi. Bu borada xalqimizda „Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadi, yomon so'z bilan pichoq qinidan“, -degan maqol bejiz aytilmagan. Inson ko'ngli bamisoli shishaga o'xshaydi. Agar sinsa, boshqa tuzalmaydi. Shuning uchun yoqimli so'zlashga, o'zgarlar ko'ngliga ozor bermaslikka harakat qilaylik. Mashhur turkiyo'y adib, ma'rifatparvar Yusuf Xos Hojib tilga shunday tashbeh bergan edi:

Til kuvaz turur, ko'r eshikda yatur,

Aya evlug, arsiq bashingni yeyur.

Mazmuni: Til arslon kabi hovlida yotadi. Agar qo'yib yuborilsa, sening boshingni yeydi, shundan ehtiyot bo'l. Ijodkor tilga shunday tashbeh berar ekan, insonni halokatga boshlovchi ham, saodatga olib boruvchi ham shu til ekanligiga urg'u beradi. Bir yomon so'z bilan bir inson ko'nglini vayron qilishimiz mumkin. Xalqimizda: „Ko'p o'yla, oz so'yla“, -degan maqol bejiz aytilmagan. Umumiy tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdir. Chunki insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozisidir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar. Boshimizga keladigan qattiq kulfatlarning ko'pi yumshoq tilimizdan keladi. Tillarning eng yaxshisi – so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilib, oxirini o'ylab so'ylangan so'z hisoblanadi. Dunyoning eng sirli mo'jizasi hisoblangan so'zga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, uni qadrlashga harakat qilaylik. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, u yer yuzidagi eng qadimiy va boy tillardan biri hisoblanadi. Bu tilning ildizlari eramizdan oldingi asrlarga borib taqaladi. O'zbek tilida olamga mashhur ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Mustaqil O'zbekiston davlatimizda erkinlikning dastlabki yillaridanoq o'zbek tilining muhofazasi va taraqqiyoti uchun barcha qonuniy asoslar yaratildi. Chorak asrdan oshdiki, o'zbek tili davlat tili sifatida o'ttiz ikki milliondan ortiq nufusning nufuzli tili maqomida rivoj topib bormoqda. Tildagi o'sish va o'zgarishlar, avvalo, xolis va birlamchi ko'zgu bo'lmish lug'at boyligida o'z aksini topadi. Bugun mustaqillik bois jamiyatimizda bozor iqtisodiyoti kirib kelishi, yangicha moliya-kredit tizimining paydo bo'lishi, fan va ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, axborot-kommunikatsiya kirib kelishi natijasida lug'at boyligimiz kengayib bormoqda. Tilimizda hozirgi kunda 120 mingdan ortiq so'z bor. Buyuk so'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy o'z ijodida 26 mingdan ortiq so'zdan foydalangan. Jahonning hech bir ijodkori bunday pog'onaga erishgan emas. O'zbeklarning tafakkur ummoni buyukdir. So'zimizda, gaplarimizda shu ummonning tomchilari ifodalanadi, ummonimiz bemisl bo'lgani uchun ham so'zlarimiz ko'p. Millionlab xalqni birlashtirgan omillardan biri, millatimizning ma'naviy belbog'i – ona tilimizdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov til haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: „Jamiki ezgu fazilatlar bola qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi orqali singadi. Ona tili bu – millatning ruhidir“. Darhaqiqat, Ona bitta bo'lgani singari ona tili ham yagona. Ona tilidan judo bo'lish haqiqiy falokatdir. Shunday ekan, har bir inson o'z ona tilini asrashi, boyitishi lozim. 1989-yil 21-oktabrda O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan barcha rasmiy tadbirlar, ish qog'ozlari, yozishmalar, asosan, o'zbek tilida o'tkaziladigan bo'ldi. Mustabid tuzum davrida tilimizni yo'qotishga ko'p urinishlar bo'lgan edi. Lekin xalqimiz o'z ona tilini – milliy g'ururini saqlab qoldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tilimiz haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: „... Kimda- kim o'zbek

tilining bor latofatini, jozibasini va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin". Darhaqiqat, ona tilimiz xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlarga safarbar etadigan buyuk va bebaho boylik hisoblanadi. Asosiy qonun bo'lmish Konstitutsiyamizning 4-moddasida ham ona tilimiz davlat tili sifatida e'tirof etilgan. Yurtimiz bo'ylab va xalqaro maydonlarda yangrayotgan Davlat madhiyasi ham qalblarimizda Vatan tuyg'usini, milliy g'ururimizni jo'sh urdiradi. Hozirgi kunda yer yuzida 50 milliondan ortiq o'zbek tilida so'zlashadigan insonlar yashaydi. Bu raqmlar esa kundan kunga ortib bormoqda. Milliy g'urur va o'zligimiz timsoli bo'lgan ona tilimizni asrab-avaylashga doimo harakat qilishimiz lozim. Men jannatmakon O'zbekiston Vatanim bilan faxrlanaman, ona tilim bilan g'ururlanaman.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. A.Navoiy., „Mahbub ul-qulub“ (Qalblar sevgisi) –T.: G'afur G'ulom. 1983.
4. Yusuf Xos Hojib., „Qutadg'u bilig“ (Saodatga yo'llovchi bilim) –T.: „O'qituvchi“. 11-sinf darslik. B.Karimov. K.Usmonova. B.To'xliyev. 2018.
5. Mahmud Qoshg'ariy., „Devoni lug'at at-turk“ (Turkiy so'zlar devoni) –T.: „O'qituvchi“. 11-sinf darslik. B.Karimov. K.Usmonova. B.To'xliyev. 2018.
6. A.Navoiy., „Hayrat ul-abror“ (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) –T.: Toshkent-2015. 5-sinf uchun darslik. S.Ahmedov. B.Qosimov. R.Qo'chqorov. Sh.Rizayev.